

## **Qonunlar asosi, mamlakat farovonligi, xalq baxt-saodatiga kafolat**

Joriy yilning 4-dekabr kuni TIQXMMI Qarshi filialida 8-dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 28 yilligi munosabati bilan "Konstitutsiya barcha qonunlarimizning asosi, mamlakatimiz farovonligi, xalqimiz baxt-saodatining kafolatidir" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qashqadaryo viloyat bo'limi rahbari o'rinnbosari L.Qambarov, Jinoyat ishlari bo'yicha Qashqadaryo viloyat sudi sudyasi Tashev Ashurali Aktamovich, bo'lim boshlig'i Suxrob Yodigorov va O'zbekiston Respublikasi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti orkestr ansambl jamoasi tashrif buyurishdi.



Tadbir mehmonlari Mamlakatimiz Bosh Qomusida jamiyat va davlat, davlat hokimiysi va boshqaruv organlari tuzilish hamda faoliyatining asosiy printsiplari, ularning vakolatlari, fuqarolarning asosiy huquq va burchlari, jamiyat va shaxs o'rtaсидagi munosabatlari belgilab berilganligini, amaldagi barcha qonunlar va boshqa hujjatlar Konstitutsiya negizida va unga muvofiq tarzda qabul qilinishi to'g'risida so'zlab o'tdilar. Tadbirning badiiy qismida orkestr jamoasi tomonidan tayyorlangan musiqiy chiqishlar barcha tadbir ishtirokchilariga manzur bo'ldi.



TIQXMMI matbuot xizmati